

OILA VA YOSH DAVRLARINING ALTRUISTIK XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA TA'SIRI

Alijonova Shaxzoda Husanboy qizi

Mustaqil tadqiqotchi

E-mail: alijonovashaxzoda63@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada altruistik xulq-atvorning ontogenezdagi shakllanishi oila muhiti va yosh davrlari nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Muallif bog'lanish nazariyasi, ijtimoiy o'rganish nazariyasi hamda axloqiy rivojlanish konsepsiyalarini qiyoslab, oilaviy omillarning prosotsial rivojlanishga ta'sir mexanizmlarini ochib beradi. Erta bolalikdan o'spirinlik davrigacha bo'lgan har bir bosqichda altruizmning yetakchi motivi va namoyon bo'lish shakli o'zgarishi asoslanadi. Tarbiya uslublari, ota-onalarning shaxsiy namunasi va birodarlar munosabatlarining o'rni ko'rsatiladi. Yakunda oilaviy tarbiya va ta'lim amaliyoti uchun tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: altruizm, prosotsial xulq-atvor, oila, oilaviy tarbiya, yosh davrlari, ontogenez, bog'lanish, empatiya, axloqiy rivojlanish, identifikatsiya

ВЛИЯНИЕ СЕМЬИ И ВОЗРАСТНЫХ ПЕРИОДОВ НА ФОРМИРОВАНИЕ АЛЬТРУИСТИЧЕСКОГО ПОВЕДЕНИЯ

Аннотация. В статье анализируется формирование альтруистического поведения в онтогенезе с точки зрения семейной среды и возрастных периодов. Автор сопоставляет теорию привязанности, теорию социального научения и концепции морального развития, раскрывая механизмы влияния семейных факторов на просоциальное развитие.

Обосновывается, что на каждом этапе — от раннего детства до юности — изменяются ведущий мотив и форма проявления альтруизма. Показана роль стилей воспитания, личного примера родителей и сиблинговых отношений. В заключение даются рекомендации для практики семейного воспитания и образования.

Ключевые слова: *альтруизм, просоциальное поведение, семья, семейное воспитание, возрастные периоды, онтогенез, привязанность, эмпатия, моральное развитие, идентификация*

THE INFLUENCE OF THE FAMILY AND AGE PERIODS ON THE FORMATION OF ALTRUISTIC BEHAVIOUR

Abstract. *The article analyses the formation of altruistic behaviour in ontogenesis from the perspective of the family environment and age periods. The author compares attachment theory, social learning theory and conceptions of moral development, revealing the mechanisms through which family factors influence prosocial development. It is argued that at each stage, from early childhood to youth, the leading motive and the form of expression of altruism change. The role of parenting styles, parental example and sibling relations is demonstrated. The article concludes with recommendations for family upbringing and educational practice.*

Key words: *altruism, prosocial behaviour, family, family upbringing, age periods, ontogenesis, attachment, empathy, moral development, identification*

Kirish

Shaxsning boshqa kishilarga g'amxo'rlik ko'rsatish, yordam berish va hamdardlik bildirish qobiliyati tug'ma tarzda tayyor holda berilmaydi — u ontogenez davomida, avvalo eng yaqin ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi. Ushbu muhitning markazida oila turadi. Bola birinchi marta o'zga insonning ehtiyojini sezishni, unga javob berishni va o'z istagini boshqa birovning istagi bilan muvofiqlashtirishni aynan oilada o'rganadi. Shu bois altruistik xulq-atvorning shakllanishi muammosini oilaviy munosabatlar tizimidan ajratib o'rganish mumkin emas.

Ikkinchi muhim omil — yosh davrlarining o'ziga xosligidir. Prosotsial xulq-atvor rivojlanishning turli bosqichlarida turlicha psixologik mazmun kasb etadi: ilk bolalikda u bevosita hissiy yuqishga, maktabgacha yoshda kattalar ma'qullashiga, o'smirlikda tengdoshlar guruhi me'yorlariga, o'spirinlikda esa shakllanayotgan qadriyatlar tizimiga tayanadi. Ushbu bosqichlarni hisobga olmaslik tarbiyaviy ta'sirlarning samarasiz bo'lishiga olib keladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — oilaviy omillar va yosh davrlarining altruistik xulq-atvor shakllanishiga ta'sirini nazariy jihatdan tahlil qilish, bu ta'sirning psixologik mexanizmlarini aniqlash hamda oilaviy tarbiya amaliyoti uchun asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ish oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi: altruizmning ontogenetik rivojlanishiga oid nazariy yondashuvlarni qiyoslash; oilaviy omillarni tasniflash; yosh bosqichlari bo'yicha altruizmning yetakchi motivlarini aniqlash.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

Altruistik xulq-atvorning ontogenezdada shakllanishi bo'yicha tadqiqotlar bir necha nazariy an'anaga tayanadi. J. Bowlby tomonidan asoslangan bog'lanish nazariyasiga ko'ra, bolaning onasi (yoki uni parvarish qiluvchi kattaning) bilan o'rnatgan ishonchli emotsional aloqasi keyinchalik boshqa odamlarga nisbatan ishonch va ochiqlik namunasini belgilaydi [1]. Ishonchli bog'lanish turiga ega bolalarda tengdoshlarga hamdardlik bildirish va yordam ko'rsatish holatlari ancha yuqori ekani qayd etilgan. Aksincha, beqaror yoki qochuvchi bog'lanish o'zga kishining hissiy holatiga sezgirlikni pasaytiradi.

Ijtimoiy o'rganish nazariyasi an'anasida altruizm kuzatish va taqlid orqali o'zlashtiriladigan xulq-atvor sifatida qaraladi. Bolalar ota-onalarning so'zlariga emas, balki real xatti-harakatiga taqlid qilishlari eksperimental tarzda ko'p bor tasdiqlangan. J. Grusec va J. Goodnow tadqiqotlari ota-onalarning tarbiyaviy ta'sir usullari bolaning qadriyatlarni ichkilashtirishiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatib berdi: majburlash va jazoga asoslangan usullar tashqi bo'ysunishni, izohlash va sababni tushuntirishga asoslangan usullar esa ichki e'tiqodni shakllantiradi [4].

Axloqiy rivojlanish konsepsiyalari — J. Piaget va L. Kolberg ishlari — altruizmni bolaning axloqiy mulohaza yuritish darajasi bilan bog'laydi [6; 7]. Ilk bosqichlarda yordam berish jazodan qochish yoki mukofot olish bilan izohlanadi, keyingi bosqichlarda esa o'zaro munosabatlar va umuminsoniy tamoyillar asosiga o'tadi. M. Hoffman esa asosiy e'tiborni empatiyaning rivojlanishiga qaratib, uning bosqichlarini tavsiflaydi: yangi tug'ilgan chaqaloqdagi hissiy yuqishdan tortib, o'smirdagi umumlashgan hamdardlik tuyg'usigacha [3].

Soʻnggi oʻn yilliklardagi eksperimental ishlar altruizmning ildizlari juda erta yuzaga kelishini koʻrsatdi. F. Warneken va M. Tomasello tadqiqotlarida 14–18 oylik chaqaloqlar hech qanday mukofotsiz va soʻralmagan holda kattaga yordam berishga harakat qilishi qayd etilgan [2]. Bu natijalar prosotsial moyillikning erta shakllanishini tasdiqlaydi, biroq uning barqaror shaxsiy sifatga aylanishi tarbiya sharoitlariga bogʻliq boʻlib qoladi. N. Eyzenberg va hamkasblarining uzoq muddatli kuzatuv tadqiqotlari bolalikdagi prosotsial faollik oʻsmirlik va yetuklik davrida ham maʼlum darajada saqlanib qolishini koʻrsatgan [8; 9].

Oʻzbek psixologiyasi va pedagogikasi anʼanasida bola tarbiyasi milliy qadriyatlar, oilaviy anʼanalar va mahalla instituti bilan bogʻliq holda oʻrganiladi. E.Gʻ. Gʻoziyev ishlarida shaxsning ijtimoiy yoʻnalganligi yosh davrlari xususiyatlari bilan uzviy bogʻlab tahlil qilinadi [13; 14]. Shu bilan birga, altruistik xulq-atvorning oilaviy determinantlarini yosh kesimida maxsus oʻrgangan tizimli tadqiqotlar hozircha kam, bu esa mazkur ishning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti va qoʻllanilgan metodlar

Tadqiqot obyekti — bolalar va oʻsmirlarda altruistik xulq-atvorning shakllanish jarayoni, predmeti esa oilaviy omillar va yosh davrlarining ushbu jarayonga taʼsiridir. Ishda nazariy tadqiqot metodlari qoʻllanilgan: psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, umumlashtirish va modellashtirish.

Tahlil ikki oʻq boʻyicha olib borildi. Birinchi oʻq — oilaviy omillar: bogʻlanish turi, ota-onalik uslubi, ota-onaning shaxsiy namunasi, oiladagi hissiy iqlim, birodarlar munosabatlari, oilaning qadriyat yoʻnalishi. Ikkinchi oʻq — yosh

bosqichlari: ilk bolalik (1–3 yosh), maktabgacha yosh (3–6/7 yosh), kichik maktab yoshi (7–11 yosh), o'smirlik (11–15 yosh) va o'spirinlik (15–18 yosh). Har bir bosqich uchun altruizmning yetakchi motivi, namoyon bo'lish shakli va tarbiyaviy ta'sirning maqbul usuli aniqlandi.

Tahlil natijalari va ularning muhokamasi

Bog'lanish va hissiy iqlim. Tahlil shuni ko'rsatadiki, oilaning altruizm shakllanishiga ta'siridagi eng birlamchi mexanizm — ishonchli bog'lanishning yuzaga kelishidir. Ehtiyojlariga izchil va sezgir javob oladigan bola dunyoni xavfsiz, odamlarni esa ishonchli deb idrok etadi. Bunday bolada boshqa insonning qayg'usiga e'tibor qaratish uchun zarur bo'lgan hissiy resurs mavjud bo'ladi. Aksincha, doimiy tashvish holatidagi bola o'z xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, o'zgalarning holatiga sezgirlik ko'rsatish imkoniyati cheklanadi [1]. Shu ma'noda altruizm tarbiyasi bevosita "altruistik" ta'sirlardan emas, balki oilada barqaror hissiy iqlim yaratishdan boshlanadi.

Ota-onalik uslubi. D. Baumrind tomonidan ajratilgan ota-onalik uslublari altruistik rivojlanishga turlicha ta'sir ko'rsatadi [5]. Avtoritar uslubda bola qoidalarga bo'ysunishni o'rganadi, biroq bu bo'ysunish tashqi nazoratga bog'liq bo'lib qoladi; nazorat yo'qolganda prosotsial xulq ham susayadi. Liberal uslubda bola o'z istaklarini cheklashga o'rganmaydi, natijada boshqalarning ehtiyojini hisobga olish ko'nikmasi yetarli shakllanmaydi. Eng samarali natija avtoritetli (demokratik) uslubda kuzatiladi: bu yerda talab qo'yish izohlash bilan, nazorat esa hissiy iliqlik bilan birlashtiriladi.

Ayniqsa muhim usul — induksiya, ya'ni bolaga o'z xatti-harakati boshqa odamga qanday ta'sir qilganini tushuntirishdir. J. Grusec va J. Goodnow ko'rsatganidek, aynan shu usul qadriyatlarning ichkilashtirilishini ta'minlaydi, chunki u bolani boshqa insonning holatini tasavvur qilishga undaydi [4]. Bu esa empatiyaning kognitiv komponentini mashq qildiradi va vaqt o'tishi bilan avtomatlashgan ko'nikmaga aylanadi.

Ota-onaning shaxsiy namunasi va birodarlar munosabati. Bolaning kuzatuvini so'zdan kuchliroqdir. Agar ota-ona qo'shniga yordam berish, kasalni yo'qlash, ehtiyojmandga ko'maklashishni kundalik amaliyotga aylantirgan bo'lsa, bola bu xulqni tabiiy me'yor sifatida qabul qiladi. Aksincha, so'zda insonparvarlikni targ'ib qilib, amalda befarqlik namoyish etish bolada ikkilanish va sinizmnini keltirib chiqaradi. Birodarlar munosabatlari esa altruizm uchun tabiiy mashq maydoni vazifasini bajaradi: kichik ukaga g'amxo'rlik qilish, o'yinchoqni bo'lishish, navbatga rioya qilish orqali bola o'z manfaatini vaqtincha chetga surish tajribasini orttiradi.

Ilk bolalik va maktabgacha yosh. Ilk bolalikda (1–3 yosh) altruizmning dastlabki ko'rinishlari hissiy yuqish va bevosita taqlid asosida yuzaga keladi. Bu yoshdagi bola boshqa bolaning yig'isiga javoban o'zi ham xafa bo'lishi, unga o'yinchoq uzatishi mumkin, biroq bu harakat hali ongli hamdardlikka asoslanmagan. F. Warneken va M. Tomasello tadqiqotlari shu yoshda ham instrumental yordam ko'rsatish moyilligi mavjudligini isbotlagan [2]. Maktabgacha yoshda (3–6/7 yosh) esa yetakchi motiv kattalarning ma'qullashi bo'ladi: bola “yaxshi bola” bo'lish uchun yordam beradi. Bu bosqichda maqtov va

ijobiy baholash tarbiyaning eng samarali vositasi hisoblanadi, ammo uni haddan ortiq qo'llash yordamni mukofotga bog'lab qo'yish xavfini tug'diradi.

Kichik maktab yoshi. 7–11 yoshda bolaning ijtimoiy doirasi kengayadi, sinf jamoasi va o'qituvchi muhim ahamiyat kasb etadi. Altruistik xulq-atvor qoidalarga rioya qilish va adolat tushunchasi bilan bog'lanadi: bola “hammaga barobar” tamoyilini o'zlashtiradi va uni buzilishiga sezgir munosabatda bo'ladi [6]. Bu yoshda birgalikdagi mehnat, jamoaviy topshiriqlar va navbatchilik kabi faoliyat turlari prosotsial ko'nikmalarni mustahkamlashning qulay vositasi bo'lib xizmat qiladi. Oila esa bola tashqarida orttirgan tajribani muhokama qilish va baholash orqali unga ma'no beradi.

O'smirlik davri. O'smirlik (11–15 yosh) altruizm rivojlanishidagi eng ziddiyatli bosqich hisoblanadi. Bir tomondan, mavhum tafakkurning rivojlanishi va o'zini boshqa odam o'rniga qo'yish qobiliyatining kuchayishi empatiyani yuqori darajaga ko'taradi; ikkinchi tomondan, egotsentrizm, o'z shaxsiga ortiqcha e'tibor va tengdoshlar guruhiga qaramlik prosotsial faollikni tanlab qo'llashga olib keladi. O'smir ko'pincha o'z guruhiga nisbatan yuqori altruizm, guruhdan tashqaridagilarga esa befarqlik namoyish etishi mumkin. Bu bosqichda ota-onaning bevosita ko'rsatmalari samarasiz bo'lib, muloqotga asoslangan, o'smirning mustaqil fikrini hurmat qiladigan yondashuv talab etiladi.

O'spirinlik davri. 15–18 yoshda altruizm shaxsning qadriyatlar tizimiga singib boradi va nisbatan barqaror yo'nalganlik sifatini kasb etadi. G. Carlo va B. Randall ko'rsatganidek, bu yoshda prosotsial xulq-atvorning bir necha mustaqil turi ajraladi: anonim yordam, hissiy yordam, inqirozli vaziyatdagi yordam, jamoat

oldida ko'rsatiladigan yordam va so'rovga binoan ko'rsatiladigan yordam [10]. Ularning har biri turlicha motivatsion asosga ega. O'spirinlik davri ko'ngillilik faoliyatiga jalb qilish uchun eng qulay davr hisoblanadi, chunki bu yoshda ijtimoiy foydali faoliyatda ishtirok etish o'zlikni anglash ehtiyojini ham qondiradi.

Milliy va madaniy kontekst. O'zbek oilasi sharoitida altruistik tarbiyaning o'ziga xos resurslari mavjud. Ko'p avlodli oila tuzilmasi, keksalarga hurmat an'anasi, mahalla instituti va hashar amaliyoti bolaga o'zaro yordamning tabiiy namunalarini kundalik hayotda kuzatish imkonini beradi. Ayni paytda bu tizim altruizmni ko'pincha "o'z doirasi" — qarindoshlar va qo'shnilar doirasi bilan cheklab qo'yish xavfini ham tug'diradi. Zamonaviy tarbiyaning vazifasi — bu tabiiy resursni saqlagan holda, prosotsial munosabatni notanish odamlarga va umuman jamiyatga kengaytirishdan iborat.

Muhokama

Olib borilgan tahlil oila va yosh omillarining o'zaro ta'siri haqida muhim xulosa chiqarish imkonini beradi: bir xil tarbiyaviy ta'sir turli yosh bosqichlarida turlicha, ba'zan qarama-qarshi natija berishi mumkin. Maktabgacha yoshda samarali bo'lgan maqtov va rag'batlantirish o'smirlikda manipulyatsiya sifatida qabul qilinishi, kichik maktab yoshida foydali bo'lgan qat'iy qoidalar esa o'spirinlikda qarshilik uyg'otishi mumkin. Shu sababli tarbiya usuli bosqichga muvofiq o'zgarib borishi kerak.

Tahlil natijalari, shuningdek, altruizm shakllanishida hissiy asos (bog'lanish, iliqlik) va kognitiv asos (izohlash, tushuntirish, muhokama) bir-birini almashtira olmasligini ko'rsatadi. Faqat hissiy iliqlik bolani mehribon, ammo prinsipsiz

qilishi mumkin; faqat izohlash va talab esa uni qoidalarini yaxshi biladigan, biroq befarq shaxsga aylantirishi mumkin. Samarali natija ushbu ikki chiziqning uyg'unlashuvida yuzaga keladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, altruistik xulq-atvorning shakllanishida oila birlamchi va hal qiluvchi institut bo'lib qoladi; uning ta'siri to'rtta asosiy mexanizm — ishonchli bog'lanish, ota-onalik uslubi, shaxsiy namuna va birodarlar bilan munosabat orqali amalga oshadi.

Ikkinchidan, altruizm ontogenezda sifat jihatidan o'zgarib boradi: hissiy yuqishdan (ilk bolalik) kattalar ma'qullashiga (maktabgacha yosh), undan adolat tamoyiliga (kichik maktab yoshi), tengdoshlar guruhi me'yorlariga (o'smirlik) va nihoyat ichki qadriyatlarga (o'spirinlik) asoslanadi. Uchinchidan, tarbiyaviy ta'sirning samaradorligi uning yosh bosqichiga muvofiqligiga bevosita bog'liq.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: ota-onalar uchun induksiya usulini o'rgatuvchi ma'rifiy dasturlar tashkil etish; maktab ta'limida yosh xususiyatlariga mos ko'ngillilik faoliyatini bosqichma-bosqich joriy qilish; oilada bolaga real javobgarlik yuklanadigan topshiriqlar berish; prosotsial xulqni mukofot bilan haddan ortiq bog'lamaslik. Tadqiqotning istiqbolli yo'nalishi — mahalliy namunada oilaviy omillar va altruizm darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni empirik o'rganishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bowlby J. Attachment and Loss. Vol. 1: Attachment. — New York: Basic Books, 1969. — 428 p.
2. Warneken F., Tomasello M. Altruistic helping in human infants and young chimpanzees // Science. — 2006. — Vol. 311, No. 5765. — P. 1301–1303.
3. Hoffman M.L. Empathy and Moral Development: Implications for Caring and Justice. — Cambridge: Cambridge University Press, 2000. — 331 p.
4. Grusec J.E., Goodnow J.J. Impact of parental discipline methods on the child's internalization of values: A reconceptualization of current points of view // Developmental Psychology. — 1994. — Vol. 30, No. 1. — P. 4–19.
5. Baumrind D. Current patterns of parental authority // Developmental Psychology Monographs. — 1971. — Vol. 4, No. 1, Pt. 2. — P. 1–103.
6. Piaget J. The Moral Judgment of the Child. — London: Routledge & Kegan Paul, 1932. — 418 p.
7. Kohlberg L. Essays on Moral Development. Vol. 1: The Philosophy of Moral Development. — San Francisco: Harper & Row, 1981. — 441 p.
8. Eisenberg N., Mussen P.H. The Roots of Prosocial Behavior in Children. — Cambridge: Cambridge University Press, 1989. — 197 p.
9. Eisenberg N., Fabes R.A., Spinrad T.L. Prosocial development // Handbook of Child Psychology. Vol. 3. — New York: Wiley, 2006. — P. 646–718.

10. Carlo G., Randall B.A. The development of a measure of prosocial behaviors for late adolescents // Journal of Youth and Adolescence. — 2002. — Vol. 31, No. 1. — P. 31–44.
11. Bar-Tal D. Prosocial Behavior: Theory and Research. — Washington: Hemisphere Publishing, 1976. — 172 p.
12. Batson C.D. The Altruism Question: Toward a Social-Psychological Answer. — Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1991. — 257 p.
13. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010. — 543 b.
14. G'oziyev E.G'. Yosh davrlari psixologiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1994. — 224 b.